

**PASTKI NAFAS YO'LLARI PATOLOGIYASINING RIVOJLANISHIDA
ATIPIK MIKROFLORANING ROLI VA ZAMONAVIY DIAGNOSTIKASI**

*Muhamadiyeva L.A.- t.f.d., professor, 3-Pediatriya va tibbiy genetika
kafedrasi mudiri;*

*Kudratova Z.E.-Klinik laborator diagnostikasi va DKTF klinik laborator
diagnostikasi kursi bilan kafedrasi PhD, dotsent v.b.*

*Sirojeddinova S.- Klinik laborator diagnostikasi va DKTF klinik laborator
diagnostikasi kursi bilan kafedrasi klinik ordinatori
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, Uzbekiston*

Annotatsiya. So'nggi o'n yilliklarda olib borilgan ko'plab tadqiqotlar tufayli hujayra ichi qo'zg'atuvchilarning morfologiyasi, antigen tuzilishi, rivojlanish tsiklining xususiyatlari va patogenlik xususiyatlarini batafsil o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Kalit so'zlar: xlamidiya, mikoplasma, PCR diagnostika, xujayra ichi;

Serologik diagnostika, polimeraza zanjir reaksiyasi (PCR) va DNKni gibridlash (nuqta-gibridizatsiya) usullari amaliyotga kiritilganidan so'ng xlamidial va mikoplazma infeksiyalarini o'rganishda katta imkoniyatga ega bo'ldik. Afsuski, amalda ushbu tadqiqot usullari asosan jinsiy yo'l bilan yuqadigan urogenital xlamidiya diagnostikasi uchun o'z tasdig'ini topdi. Juda kam holatlarda yuqorida keltirilgan tekshirish usullarining yuqori narxlari tufayli ular kattalarda, hatto kam hollarda bolalarda o'pka-bronx patologiya uchun ishlatilgan. Birinchidan, xlamidial infeksiya diagnostikasining zamonaviy usullarining keng pediatriya amaliyoti uchun mavjud emasligi hozirgi vaziyatni tushuntirib berishi mumkin, chunki bolalarda xujayra ichi qo'zg'atuvchilarining nafas olish kasalliklaridagi roli, tarqalishi va oqibatlarini kabi dolzarb masalalar to'liq o'rganilmagan va ushbu muhim muammolar bo'yicha tadqiqotlar tabiatan spekulativ hisoblanadi [1,2,5,6,8].

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida zardobdan xlamidial turlarga xos antitanalarni aniqlash IFA test tizimlari yordamida: IgG va IgM (*C. trachomatis*, *C. pneumoniae*, *C. psittaci*), Vektor-Best (Rossiya); IgG, IgM, IgA (*C. trachomatis*, *C. pneumoniae*, *C. psittaci*), "Medac" (Germaniya) aniqlash mumkin [3,4,5,8,10].

Adabiyot ma'lumotlarini tahlil qilish, shuningdek laboratoriya testlarining sezgirligi va o'ziga xosligini baholash asosida quyidagi diagnostika mezonlarining asosiylari sifatida aniqlandi:

- o'giz-xalqumdan olingan materialda xlamidial (mikoplazma) AG yoki DNKsining (IFA, PCR, DNK gibridlanishi usullari orqali) mavjudligi;

- diagnostik ahamiyatga ega titrlarda (IFA tekshirish usuli orqali) IgM (A) antitanalarini aniqlash;
- IgM-, IgG-antitanalari (IFA) paydo bo'lishi bilan serokonversiya;
- juftlikda olib borilgan tadqiqotda (ELISA) IgG titrlarining 2 marta ko'payishi.

Mikoplazma qo'zg'atuvchisini diagnostikasi *M. pneumoniae* (Mycoplasma IgM EIA) uchun XEMA Co. LTD reagentlari yordamida amalga oshirish mumkin. Pozitivlik indeksi (PI) > 1.1 yuqori bo'lgan natijalar ijobiy, PI < 0.9 dan kichiklari manfiy natija deb hisoblanadi [11,12,13,14].

Klinik simptomlarga ko'ra nafas olish tizimining zararlanish darajasi kasallikning o'tkirligi va og'irligi, shuningdek uni davolash samaradorligi bilan aniqlanadi. Kasallikning klinik ko'rinishini bilish serologik tadqiqotlar natijalarini to'g'ri talqin qilish uchun, xususan, surunkali infeksiyani reinfeksiyadan va qo'zgalish jarayonlarini differentsial diagnostikasi uchun zarurdir. Ilmiy maqsadlarda, shuningdek kasallikning bosqichini aniqlash va davolash taktikasini aniqlash uchun IgG va IgM (*C. trachomatis* va *C. pneumoniae*).AT turlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Organizmning infeksiyaga bo'lgan javob reaksiyasini aks ettiruvchi serologik ko'rsatkichlar hujayra ichidagi infeksiyalarni tasdiqlash uchun ustuvor ahamiyatga ega. Xlamidial va mikoplazma infeksiyasining bosqichini tashxislash uchun o'ziga xos IgM antitanalari (o'tkir infeksiya, reaktivatsiya yoki reinfeksiya) va IgG (konvulsatsiyadan keyingi holat, surunkali infeksiyaning kuchayishi) titrlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Kombinatsiyalangan bakterial-xlamidial, xususan xlamidial-mikoplazma bilan yuqadigan holatlarda serologik tadqiqot usullari ayniqsa muhimdir. Bunday hollarda, 2-3 haftadan so'ng ularni qayta tekshirish paytida klinik ma'lumotlarning tahlili va o'rganilgan parametrlarning dinamikasi muhim ahamiyat kasb etdi. Organizmning infeksiyaga bo'lgan javob reaksiya darajasini aks ettiruvchi serologik ko'rsatkichlar hujayra ichi qo'zg'atuvchilarni tasdiqlash uchun ustuvor ahamiyatga ega [1,2,3,14,15,16,17,18].

Xlamidial IgM yuqori titrlarining mavjudligi va IgG titrlarining to'rt martadan oshishi yoki ularning takroriy tadqiqotlarda ko'payishi antibiotik terapiyasini tayinlash uchun ko'rsatma sifatida qaraladi. Xlamidial va mikoplazma infeksiyalarining klinik ko'rinishi kasallik shakliga bog'liq. Bugungi kunga qadar kasallikning nafas olish shakllari eng ko'p o'rganilgan [6,7,8].

Nafas olish yo'llari xlamidial infeksiyasi tashxisini tuzishda uning o'pkadan tashqari ko'rinishini ko'rsatib, uning klinik shaklini [o'tkir respiratorli infeksiyalar, obstruktiv laringotraxeit (krup), bronxit, bronxial astma yoki pnevmoniya] shuningdek, serologik mezonlarga ko'ra yuqumli jarayonning bosqichlari (birlamchi infeksiya, surunkali jarayonning kuchayishi yoki remissiya, tashish); kasallikning asoratlari

(plevrit, miokardit), nishon organlar tomonidan funktsional buzilishlar darajasi (nafas olish, yurak etishmovchiligi va boshqalar) ajratish maqsadga muvofiqdir [9,12,13,14].

Xlamidial etiologiyali O'RVI limfadenopatiya bilan kechadigan uzoq muddatli yo'tal alomatlari, variantiga ko'ra uzoq davom etadigan bronxit, kon'yunktivit, artralgiya, eozinofiliya, shuningdek, yurak-qon tomir tizimi va oshqozon-ichak traktining turli xil funktsional kasalliklari shaklida kechadi. O'tkir respiratorli infeksiyalarda xlamidial infeksiya ko'pincha virusli yoki bakterial patogenlar bilan kombinatsiyalangan tarzda keladi. Shu bilan birga, krup, pnevmoniya va bronxial obstruksiya ko'rinishidagi asoratlari 2-3 baravar ko'proq uchraydi. O'zining davomiyligi bo'yicha kasallik virusli etiologiyali o'tkir respiratorli infeksiyalaridan sezilarli darajada oshish bilan farq qiladi va etiotrop antibiotikterapiyasini talab qiladi. Xlamidial infeksiya bolalar allergiyasi qo'zg'alishida muhim rol o'ynadi, va bu xlamidiya bilan kasallangan bolalarda qon IgE ning sezilarli darajada oshishi bilan belgilanadi. Obstruktiv bronxit (17,3%) va bronxial astmasi (27,7%) bo'lgan bemorlarda xlamidiya bilan zararlanishining yuqori darajasi aniqlanadi. Obstruktiv bronxitli yosh bolalarda asosan C. pneumonia bilan kasallangan (57,2%); 9 yoshdan boshlab C. pneumonia turlari deyarli uchramaydi [11,14,16,17].

Xlamidiya etiologiyali obstruktiv bronxitda bolalarda klinikasida obstruktiv komponent (har bir ikkinchi bolada) va kasallikning qaytalanishi ustun keladi, bu xlamidial infeksiyaning ushbu asoratlarni rivojlanishida ishtirok etishidan dalolat beradi. Infeksiyaning virusli komponenti paragripp viruslari, adenoviruslar va gripp viruslari bilan ifodalangan. Patogen mikroflora retsidiv holatlarida va tez-tez kuchayib boradigan bolalarda ustunlik qiladi [2,3,4,5].

Surunkali xlamidial infeksiya va qo'zg'atuvchining uzoq vaqt saqlanib turishi limfadenopatiya, bir qator organlar morfologik va funktsional buzilishlarning kelib chiqishiga yordam beradi. Adekvat etiotrop terapiyaning qo'llanilmasligi xlamidial infeksiyasining tashuvchi hisinining shakllanishiga, bronxitning qaytalanishiga va surunkali tus olishiga olib keladi [11,12,13,17].

Shunday qilib, ushbu maqolada nafas olish yo'llari kasalliklari etiologiyasini, xususan, obstruktiv bronxitni aniqlash va o'z vaqtida davolanishni ta'minlash uchun xlamidial va mikoplazma infeksiyalarining zamonaviy serologik diagnostikasini pediatriya amaliyotiga kengroq joriy etish zarurligi to'g'risida ishonchli dalillardan ko'proq ma'lumot keltirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isomadinova L. K., Kudratova Z. E. Clinical and laboratory characteristics of vomiting in pregnant women in early pregnancy //Doctor's herald journal. – 2023. – T. 2. – C. 52-56.
2. Kudratova Zebo Erkinovna, Karimova Linara Alixanovna Age-related features of the respiratory system // ReFocus. 2023. №1.

3. Isomadinova L.K, Qudratova Z.E., Babaxanova F.Sh. Clinico-laboratory features of the course of Covid-19 with hepatitis b journal of new century innovations №-3. 2023 P. 60-65.
4. Isomadinova L.K. Qudratova Z.E. Shamsiddinova D.K.Samarqand viloyatida urotiliz kasalligi klinik-kechishining o'ziga xos xususiyatlari. Central asian journal of education and innovation №10. 2023 , P. 51-53
5. Kudratova Z. E.Isomadinova L. K.Sirojeddinova S. F. Tursunova M. E.Current modern etiology of anemia. novateur publications international journal of innovations in engineering research and technology. № 10. 2023, P. 1-4.
6. Dushanova G. A., Nabiyeva F. S., Rahimova G. O. Features of the distribution of hla-antigens among people of the uzbek nationality in the samarkand region //Open Access Repository. – 2023. – T. 10. – №. 10. – С. 14-25.
7. Umarova S. S., Mukhamadiyeva L. A., Nabiyeva F. S. The pathogenesis of rheumatic fever //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 29. – №. 4. – С. 164-169.
8. Nabiyeva F. S. et al. Creation of optimum conditions for propagation of saccharomyces cerevisiae yeast //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 23. – №. 1. – С. 85-91.
9. Кудратова З. Э. и др. Атипик микрофлора этиологияли ўткир обструктив бронхитларининг ў зига хос клиник кечиши //Research Focus. - 2022. - Т. 1. - №. 4. - С. 23-32.
10. Kudratova Z. E, Normurodov S. Etiological structure of acute obstructive bronchitis in children at the present stage - Thematics Journal of Microbiology, 2023. P.3-12.
11. Kudratova Z. E., Tuychiyeva S. K. Atipik mikroflora etiologiyali o'tkir obstruktiv bronxitlar etiopatogenezining zamonaviy jixatlari. Research Focus, 2023, B. 589-593.
12. Kudratova Z. E., Karimova L. A. Age-related features of the respiratory system. Research Focus, Том 2, P. 586-588.
13. Кудратова З. Э., Мухаммадиева Л. А., Кувандиков Г. Б. Особенности этиопатогенеза обструктивного бронхита и ларинготрахеита, вызванных атипичной микрофлорой //Достижения науки и образования. - 2020. - №. 14 (68). - С. 71-72.
14. Набиева Ф. С., Кудратова З. Э., Кувандиков Г. Б. Роль saccharomyces cerevisiae в развитии современной биотехнологии //Достижения науки и образования. - 2021. - №. 5 (77). - С. 57-60.
15. Кудратова З. Э., Умарова С. С., Юлаева И. А. Современные представления о микробиоте влагалища в детском возрасте //Наука, техника и образование. - 2020. - №. 5 (69). - С. 84-86.

16. Kudratova Z.E, Muxamadiyeva L.A., & Hamidova Z.A. (2023). The Importance of Iron in the Body's Metabolic Processes. *Global Scientific Review*, 15, 46-51.
17. Kudratova Z. E. et al. The Role of Cytokine Regulation in Obstructive Syndrome of Atypical Genesis in Children // *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*. - 2021. - C. 6279-6291-6279-6291.
18. Kudratova Z. E., Sh S. M. Laboratory methods for diagnosing urogenital chlamydia // *Open Access Repository*. - 2023. - T. 10. - №. 10. - C. 5-7.

